

## SOG'LIQNI SAQLASH VA RAQAMLI TIBBIYOT

## ЗДРАВООХРАНЕНИЕ И ЦИФРОВАЯ МЕДИЦИНА

## HEALTHCARE AND DIGITAL MEDICINE

**Sayfullayev Azizbek Anvarjon O'g'li**

*Buxoro Davlat Texnika Universitet xizmat ko'rsatish  
va raqamlashtirish fakultet bakalavri*

**Temirov Jo'raqodir Abdujallilovich**

*Buxoro Davlat Texnika Universitet xizmat ko'rsatish  
va raqamlashtirish fakultet bakalavri*

**Nabiyeva Feruza Ravshanovna**

*Buxoro Davlat Texnika Universitet xizmat ko'rsatish  
va raqamlashtirish fakultet bakalavri*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola O'zbekistonning Sog'liqni saqlash va Raqamli tibbiyotda erishilgan bazi yutuq va kamchiliklarini muhokama qiladi. Maqolada o'tgan bir necha yil davomida sog'liqni saqlash tizimiga qaratilgan e'tibor va islohotlar, shuningdek keyingi 2024-2025 yillarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan rivojlanish bosqichlarini, yangi davolash usullari, emlashlar va dori-darmonlarni ishlab chiqish sohasiga katta e'tibor berilishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga, raqamli tibbiyotning faol rivojlanishi, tibbiyot birlashmalarining zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi mavzulari atroflicha o'rganiladi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются некоторые достижения и недостатки Узбекистана в области здравоохранения и цифровой медицины. Анализируются усилия и реформы, направленные на систему здравоохранения за последние несколько лет, а также этапы развития, которые следует реализовать в 2024-2025 годах, с акцентом на разработку новых методов лечения, вакцин и лекарственных препаратов. Одновременно подробно изучаются вопросы активного развития цифровой медицины и обеспечения медицинских ассоциаций современными технологиями.*

**Annotation:** *This article discusses some of the achievements and shortcomings of Uzbekistan in the field of healthcare and digital medicine. The article reviews the attention and reforms that have been directed at the healthcare system over the past few years, as well as the stages of development that should be implemented in the next 2024-2025, with a focus on the development of new treatments, vaccines and medicines. At the same time, the topics of active development of digital medicine and provision of medical associations with modern technologies are studied in detail.*

**Kalit so'zlar:** *raqamli tibbiyot, telemeditsina, zamonaviy texnologiyalar, tibbiyot birlashmalari, strategiyalar*

Sogʻliqni saqlash – aholi sogʻligʻini muhofaza qilishga yoʻnaltirilgan ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy tadbirlar tizimi. Sogʻliqni saqlash kasalliklarning oldini olish va davolash, sogʻlom turmush va mehnat sharoitini yaratish, yuqori mehnat qobiliyatini va uzoq umr koʻrishni taʼminlashga qaratilgan umumiy tadbirlarni koʻzda tutadi; uning asosiy vazifasi bemorlarga zamonaviy, ixtisoslashgan hamda mos tarzda yordam koʻrsatishdan iborat.

Sogʻliqni saqlash Sharqda, xususan Oʻzbekistonda uzoq tarixga ega. Ayniqsa oʻrta asrda bu hududda tabobat ilmida yuqori bosqichlarga erishildi. Shu davrda yunon va boshqa tillardan qad. tibbiy asarlar arab tiliga tarjima etilib, ulardagi tavsiyalar amaliyotda qoʻllanila boshlagan. Ayni vaqtda Sharq mutafakkirlari tabobat ilmidan olamshumul asarlar yaratganlar. Bu borada Abu Rayhon Beruniyning „Tibbiyotda dorishunoslik“ („Kitob assaydana fittib“), Abu Ali ibn Sinoning „Tib qonunlari“ („Al Qonun fittib“) asarlari mashhur boʻlib, jahon tabobatida uzoq davrlar mobaynida asosiy qoʻllanma boʻlib kelgan. Ayniqsa, Abu Ali Ibn Sino davolashning yangi usullarini qoʻllab tabib (hakim) sifatida oʻz davrida juda mashhur boʻldi. Keyingi davrlarda ham tabiblik Turkistonda sogʻliqni saqlashning asosiy shakli boʻlib keldi. Tabiblar madrasalarda taʼlim olishgan yoki ustozshogirdlik yoʻli bilan turli kasalliklarga, singanchiqqanlar, yarachaqalarga davo qilishni, xastaliklarning oldini olishni oʻrganishgan. Ularning koʻplari nafaqat bemorlarni davolash, balki doridarmonlar tayyorlash bilan ham shugʻullanganlar. Sohibqiron Amir Temur boshqa maʼrifiy ishlar qatori aholi salomatligini muhofaza qilish ishiga ham alohida eʼtibor bergan. Boshqa mamlakatlar mashhur tabiblarini poytaxt Samarqandga olib kelib, maxsus shifoxonalar ochgan.

Aholi sogʻligʻini muhofaza qilish koʻp jihatdan davlat epidemiologiya xizmati faoliyatiga bogʻliq. Oʻzbekistonda sanitariyaepidemiologiya stansiyalari va aholi oʻrtasida sogʻlom turmush tarzini shakllantirishning tashkiliyuslubiy va muvofiklashtiruvchi ishlarini olib boradigan „Salomatlik“ markazlari bu vazifani amalga oshirmoqsa. Respublikada „Salomatlik“ instituti, uning viloyatlar va shaharlardagi shoxobchalari radio va televideniye hamda matbuotdan foydalangan holda aholi oʻrtasida sanitariyagigiyenaga oid bilimlarni keng targʻib qilib boradi.

Bolalarga ixtisoslashgan tibbiy yordam beruvchi muassasalar tarmogʻi barpo etildi. Respublikada ishlab chiqilgan „Sogʻlom avlod uchun“ dasturi avvalo muntazam oʻtkazib turiladigan tibbiy tekshirishlar asosida salomatligi zaif va kasalmang maktab oʻquvchilari va oʻsmirlarni aniklab, ularni va umuman yosh avlodni sogʻlomlashtirish choratadbirlarini amalga oshirib borishni koʻzda tutadi.

Onalik va bolalikni muhofaza qilishdagi, sogʻlom avlodni kamol toptirish uchun eng yaxshi moddiy sharoit va axloqiy muhitni taʼminlashdagi alohida xizmatlari uchun 1993-yil 7 mayda Oʻzbekiston Respublikasi ning I va II darajali „Sogʻlom avlod uchun“ ordeni taʼsis etildi.

Oʻzbekistonda tibbiy taʼlimning uzluksiz boʻlishiga va mutaxassislarning oʻz malakalarini oshirib borishiga katta ahamiyat beriladi. Toshkentda vrachlar malakasini oshirish instituti ishlab turibdi. Uning 43 kafedrası va har xil ixtisoslikka moʻljallangan kurslarida har yili 8—10 ming vrach oʻz malakasini oshiradi.

Mamlakatda Sogʻliqni saqlash sohasidagi islohot bosqichmabosqich olib borildi. Birinchi bosqichda (1991—94 yillar) butun eʼtibor onalar va bolalar sogʻligʻini muhofaza qilish

xizmatini takomillashtirish, demografik ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish, yuqumli kasalliklarni kamaytirishga karatildi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq hamda aholining malakali tibbiy xizmatdan foydalanish va ijtimoiy himoyaga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, shuningdek, tibbiy xizmatlarning sifatini yaxshilash uchun tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni yaratish, sog'lom avlodni tarbiyalash, sog'liqni saqlash tizimini mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq holga keltirish maqsadida:

1. Respublika komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 12-iyundagi F-856-son Farmoyishi bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini 1998—2005-yillarda isloh qilishning quyidagi tarkibdagi Davlat dasturi ma'qullansin:

1998—2005-yillarda sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish konsepsiyasi, 1-ilovaga\* muvofiq;

bepul tibbiy yordam ko'rsatadigan va budjetdan moliyalanishi lozim bo'lgan davolash-profilaktika muassasalari ro'yxati, 2-ilovaga\* muvofiq;

bosqichma-bosqich pulli tibbiy xizmatlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan davolash-profilaktika muassasalari ro'yxati, 3-ilovaga\* muvofiq;

2001—2005-yillarda qishloq vrachlik punktlari tarmog'ini rivojlantirish dasturi, 4-ilovaga\* muvofiq;

shifokor kadrlar va o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlashga bo'lgan qo'shimcha ehtiyojlar, 5-ilovaga\* muvofiq;

1999—2005-yillarda tibbiyot bilim yurtlarini kasb-hunar kollejlariga aylantirish dasturlari, 6-ilovaga\* muvofiq.

Respublikada sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirish borasida muayyan natijalarga erishildi.

O'tgan davrda qishloq vrachlik punktlari, shahar va qishloq oilaviy poliklinikalarini tashkil etish orqali birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini ko'rsatish tizimi takomillashtirildi hamda aholining ushbu xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaytirildi. Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatishning yagona markazlashgan tizimi yaratildi, fuqarolarga, jumladan, joylarda yuqori texnologiyalarga asoslangan tibbiy yordam ko'rsatuvchi respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tarmog'i takomillashtirilmoqda.

Shu bilan birga, sog'liqni saqlash sohasi faoliyatini tashkil etishda so'nggi yillarda to'planib qolgan tizimli kamchilik va muammolar fuqarolarning sog'lig'ini muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni samarali hal etishga to'sqinlik qilmoqda. Xususan:

birinchidan, sog'liqni saqlash tizimini boshqarish va rejalashtirish bo'yicha konsepsiya hamda strategik maqsadlarning mavjud emasligi oqibatida ushbu sohadagi islohotlar to'liq bo'lmagan shaklda amalga oshirilmoqda, bu esa aholining tibbiy yordam sifatiga doir istak va talablariga javob bermayapti;

ikkinchidan, sog'liqni saqlash sohasidagi smetali moliyalashtirish tizimi eskirgan, zamonaviy xalqaro amaliyotga mos kelmaydigan mexanizmlarga asoslangan bo'lib, moliya resurslarining samarasiz ishlatilishiga va sohaning surunkali tarzda moliyalashtirilmay qolishiga olib kelmoqda;

uchinchidan, kasalliklarni profilaktika qilish va barvaqt aniqlash, patronaj va sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlar samaradorligining pastligi fuqarolarning ixtisoslashgan tibbiy yordam so'rab murojaat qilishining ko'payishiga sabab bo'lmoqda;

to'rtinchidan, aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning turli darajalari va bosqichlari, shu jumladan, davolash va salomatlikni tiklash jarayonida uzviylik sust rivojlangan;

beshinchidan, amaldagi kadrlar siyosati tibbiy yordam ko'rsatishning barcha darajalarida, ayniqsa, birlamchi bo'g'inda mutaxassislar bilan ta'minlashning, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimi tashkilotchilari va boshqaruv xodimlarini tayyorlashning istiqbollarini prognozlashtirish imkonini bermayapti;

oltinchidan, tibbiy amaliyotning ta'lim va ilm-fan bilan integratsiyasi sustligi ixtisoslashtirilgan markazlarning innovatsion salohiyati pastligi bilan birgalikda zamonaviy tibbiyot yutuqlarini davolash-tashxis jarayoniga joriy etishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda;

yettinchidan, elektron sog'liqni saqlash sohasida yagona standartlar mavjud emas, tibbiy xizmatning integratsiyasini va samarali boshqarilishini ta'minlaydigan zamonaviy dasturiy mahsulotlar joriy etilmagan, mavjud axborot tizimlari va texnologiyalari tarqoq tusga ega va tor yo'nalishlarga mo'ljallangan.

Aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning sifati, samaradorligi va ommabopligini tubdan oshirishni ta'minlaydigan sog'liqni saqlash tizimini tashkil etish va moliyalashtirishning konseptual jihatdan yangi modellarini shakllantirish, tibbiyot fani va texnologiyalarining zamonaviy yutuqlarini joriy etish maqsadida, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi vazifalariga muvofiq:

1. Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari deb hisoblansin:

sog'liqni saqlash sohasidagi milliy qonunchilikni uni unifikatsiyalash hamda tibbiy xizmat sifatini oshirish va bemorlar huquqlarini himoya qilish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining mas'uliyati va himoyalanganligini kuchaytirishga qaratilgan to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunlarni qabul qilish orqali takomillashtirish;

jahon standartlari asosida menejment va tibbiy xizmatlar sifatini boshqarishning eng namunali amaliyotlarini joriy etishni ta'minlaydigan zamonaviy boshqaruv tizimini va hududlarda sog'liqni saqlashni tashkil etishning "klaster" modelini shakllantirish, tibbiyot va farmatsevtika muassasalarini akkreditatsiya qilish, shifokorlik va farmatsevtik faoliyatni litsenziyalash tizimini joriy etish;

tibbiyot sohasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, davlat tomonidan kafolatlangan bepul tibbiy yordam hajmini belgilash, tibbiy xizmatlar uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha "har bir davolangan holat" uchun to'lash tizimini hamda kishi boshiga moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, majburiy tibbiy sug'urtani bosqichma-bosqich joriy etish;

tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, tibbiy standartlashtirish tizimini shakllantirish, tashxis qo'yish va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy etish, patronaj xizmati va dispanserizatsiyaning samarali modellarini yaratish orqali sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va kasalliklarni profilaktika qilish;

tibbiy genetikani, ayollar va bolalarga shoshilinch va ixtisoslashgan tibbiy yordamni rivojlantirish asosida, zamonaviy skrining dasturlarini joriy etish, "Ona va bola" hududiy ko'p tarmoqli tibbiyot majmualari va ma'lumotlar tizimlarini shakllantirish asosida onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

xususiy sog'liqni saqlash tizimi, davlat-xususiy sherikligini va tibbiy turizmni rivojlantirish, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va raqobat muhitini yaxshilash;

farmatsevtika tarmog'ini yanada rivojlantirish, narx shakllanishi mexanizmlarini takomillashtirish, dori vositalari, tibbiy texnika va buyumlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish;

tibbiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimini shakllantirish, tibbiyot fanini rivojlantirish, shu jumladan, tibbiyot ilmiy va ta'lim muassasalarini xalqaro standartlar bo'yicha sertifikatlashtirish (akkreditatsiyadan o'tkazish) zamonaviy ta'lim dasturlari, usul va texnologiyalarini joriy etish asosida;

"elektron sog'liqni saqlash" tizimini keng joriy etish, yagona milliy standartlar asosida integratsiyalashgan axborot tizimlari va ma'lumotlar bazasi majmuasini yaratish.

## 2. Quyidagilar:

2019 — 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

2019 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Belgilab qo'yilsinki, vazirlik va idoralar rahbarlari Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli amalga oshirilishi uchun shaxsan javobgar bo'ladilar.

3. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasining quyidagilar to'g'risidagi takliflari qabul qilinsin:

2022-yil 1-yanvardan boshlab respublikaning 3-ilovaga muvofiq ayrim tumanlarida tibbiyot muassasalarini "har bir davolangan holat" uchun klinik-xarajat guruhlari bo'yicha va kishi boshiga moliyalashtirish tizimini (keyingi o'rinlarda — moliyalashtirishning yangi mexanizmlari) eksperiment tartibida joriy etish;

eksperiment natijalarini tanqidiy tahlil qilish asosida moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini 2022-yil 1-yanvardan boshlab respublikaning barcha hududlarida bosqichma-bosqich tatbiq etish;

2019-yil 1-iyuldan boshlab viloyat va tuman (shahar) darajasidagi statsionar sog'liqni saqlash muassasalarida aralash moliyalashtirish tizimini joriy etish, bunda kafolatlangan bepul tibbiy xizmat hajmiga kirmaydigan davolash turlari pulli asosda amalga oshiriladi;

2019-yil 1-iyuldan boshlab ayrim davolash-profilaktika muassasalarini ishlab chiqilgan investitsiya loyihalari (keyingi o‘rinlarda — investitsiya loyihalari) asosida belgilangan tartibda investorlarga ishonchli boshqaruvga berish;

4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Vazirlik):

a) Moliya vazirligi, Innovatsion sog‘liqni saqlash milliy palatasi, manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 2019-yil 1-iyulga qadar quyidagilarni nazarda tutadigan “Majburiy tibbiy sug‘urtalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni loyihasi ishlab chiqilishi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlasin:

majburiy tibbiy sug‘urtalashning huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari;

majburiy tibbiy sug‘urtalash subyektlarini, ushbu sohadagi huquqiy munosabatlarni tartibga solish bo‘yicha vakolatli organi, ularning huquq va majburiyatlarini belgilash;

majburiy tibbiy sug‘urtalash dasturlarini moliyalashtirish mablag‘larini shakllantirish manbalari;

b) O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda ushbu Farmonni amalga oshirishda texnik ko‘makni ta’minlash, shu jumladan, majburiy tibbiy sug‘urtalashni joriy etish bo‘yicha tadbirlarni texnik-iqtisodiy asoslashni amalga oshirish uchun Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni tashkil etish choralarini ko‘rsin.

5. Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ishchi komissiya (keyingi o‘rinlarda — Ishchi komissiya) tashkil etilsin va uning tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ishchi komissiyaning asosiy vazifalari etib Konsepsiyani amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini belgilangan tartibda sifatli ishlab chiqish va kiritish hamda amaliy choralar ko‘rilishini tashkil qilish belgilansin.

Ishchi komissiya (A.A. Abduhakimov):

bir hafta muddatda vazirlik va idoralar, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarining mutaxassislarini, fuqarolik jamiyati institutlari, yetakchi xorijiy konsalting kompaniyalari va xalqaro tashkilotlarning vakillarini jalb etgan holda normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalarini tayyorlash bo‘yicha ekspert guruhlarini tuzsin, ularning samarali faoliyatini tashkil etsin;

Dasturda nazarda tutilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining qonunchilikni, huquqni qo‘llash amaliyoti va ilg‘or xorijiy tajribani tanqidiy tahlil qilish asosida tayyorlanishini ta’minlasin;

normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari izchil va sifatli tayyorlanishi, o‘z vaqtida belgilangan tartibda ko‘rib chiqilishi va kiritilishi, shuningdek, Dasturda nazarda tutilgan boshqa tadbirlarning amalga oshirilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirsin;

2019-yil 1-aprelga qadar muddatda ayrim davolash-profilaktika muassasalarini belgilangan tartibda investorlarga ishonchli boshqaruvga berish bo‘yicha investitsiya loyihalarini tayyorlasin hamda ularning O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar bo‘yicha davlat qo‘mitasining Investitsiya portalida joylashtirilishini ta’minlasin;

sog'liqni saqlash sohasidagi eng namunali davlat-xususiy sheriklik amaliyotlarining monitoringini va keng tatbiq etilishini ta'minlasin.

9. Vazirlik ikki oy muddatda Agentlik tuzilmasi va uning nizomini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritсин.

Belgilansinki, Agentlik faoliyatini tashkil etish davlat sog'liqni saqlash tizimi organlari va tashkilotlarining shtat sonini optimallashtirish hisobidan "Sog'liqni saqlash" tarmog'i uchun ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida amalga oshiriladi.

10. Vazirlik manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

a) bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlik faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori loyihasini;

b) ikki oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagilarni nazarda tutadigan tibbiy ta'lim va tibbiyot fani tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha qarori loyihasini:

o'rta va oliy tibbiy ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv rejalari, dasturlari, o'quv-uslubiy materiallari va nazariy mashg'ulotlarni yanada optimallashtirish va amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, shuningdek, ularni tibbiyot fani va amaliyotining umumjahon yutuqlariga muvofiqlashtirish;

ilg'or ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni amaliy sog'liqni saqlashga integratsiya qilishda tibbiy oliy ta'lim muassasalari klinikalarining rolini kuchaytirish;

tor mutaxassisliklar bo'yicha tibbiy kadrlarni tayyorlashni takomillashtirish, magistratura va klinik ordinaturada o'qitish muddatlarini klinik ko'nikmalarni egallash murakkabligidan kelib chiqqan holda maqbullashtirish;

oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini, sog'liqni saqlash mutaxassislarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish, muammolarga yo'naltirilgan modulli o'quv dasturlarini joriy etish, masofadan o'qitish mexanizmlarini keng qo'llash;

boshqaruv va o'quv jarayoniga yuqori malakali va malakali xorijiy mutaxassislar, olimlar va o'qituvchilarni keng jalb etish;

## **XULOSA**

Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishda raqamli tibbiyot muhim o'rin egallaydi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, tezkorlikni ta'minlash hamda aholiga qulaylik yaratishga xizmat qiladi. Elektron tibbiy kartalar, telemeditsina, onlayn maslahat va diagnostika tizimlari shifokor hamda bemor o'rtasidagi masofani qisqartirib, davolash jarayonini yanada samarali qiladi.

Raqamli texnologiyalar orqali kasalliklarni erta aniqlash, tahlil va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish, tibbiy ma'lumotlarni xavfsiz saqlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, raqamli tibbiyotni rivojlantirish uchun infratuzilmani mustahkamlash, tibbiyot xodimlarining raqamli ko'nikmalarini oshirish hamda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash zarur.

Umuman olganda, raqamli tibbiyot sogʻliqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqib, aholining hayot sifati va umr davomiyligini oshirishga xizmat qiladigan muhim yoʻnalish hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN MANBALAR:**

- 1.<https://journal-web.uz/index.php/01/article/view/287/265>
- 2.[https://uz.wikipedia.org/wiki/Sog%CA%BBliqni\\_saqlash\\_xulosa](https://uz.wikipedia.org/wiki/Sog%CA%BBliqni_saqlash_xulosa)
- 3.<https://spubl.uz/uz/blog/current-topics-for-scientific-research-in-2024-2025>